O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

Namangan sh. Istiqlol ko`chasi 57.

2023 - yil 29 - dekabr VI-41-121-6-0-K/23 Namangan viloyati hokimligi

Namangan viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslarning mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlarni hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda kamaytiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2020-yil 3-dekabrdagi PF–6121son Farmonining 1-bandiga muvofiq, viloyat Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasi va soliq boshqarmasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llash to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi 03/41-40/1472-son (XDFU) xatida quyidagilar asos uchun qabul qilinsin:

Namangan viloyati uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 gektar uchun 44,0 mln so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m. uchun 394,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat soliq boshqarmasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tumanlar va shaharlar

bo‘yicha 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan koeffitsientlar qo‘llash bo‘yicha takliflari maqullansin.

3. Quyidagilar:

Namangan viloyati hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar yer maydoni bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Namangan viloyati hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha 1 kv.m. yer maydoni bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-yilda viloyatda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo‘llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Namangan viloyati hokimligi (G‘.Djamalov), viloyat Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), viloyat Soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) uch kun muddatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlarni hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar Namangan shahar va tumanlarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Xalq deputatlari Namangan shahar va tumanlar Kengashlari bir hafta muddatda ushbu Kengash qarorining 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, 2024-yilning 10-yanvar kuniga qadar muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni joylardagi soliq organlariga taqdim etsin.

6. Xalq deputatlari Namangan shahar va tumanlar Kengashlari ushbu Kengash qarorining 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

7. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) Xalq deputatlari Namangan shahar va tumanlar Kengashlari tomonidan tasdiqlangan yer solig‘i miqdorlarini yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari orqali besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazishilishini ta’minlasin.

8. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) hududiy soliqorganlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib, soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borsin;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlasin;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish (xatlov) ishlarini samarali tashkil etib borsin.

9. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 7-yanvardagi VI-36-1-6-0-K/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur Kengash qarori “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

11. Belgilansinki, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Ushbu Kengash qarorining ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Xodjaev) va viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi raisi **Sh.Abdurazakov**

Xalq deputatlari Namangan viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-41-121-6-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (ming.so‘m)
1	Namangan shahar	1,380	60 720,0
2	To‘raqo‘rg‘on tumani	0,805	35 420,0
3	Yangiqo‘rg‘on tumani	0,695	30 580,0
4	Chust tumani	0,780	34 320,0
5	Uchqo‘rg‘on tumani	0,745	32 780,0
6	Pop tumani	0,675	29 700,0
7	Namangan tumani	0,775	34 100,0
8	Kosonsoy tumani	0,675	29 700,0
9	Mingbuloq tumani	0,655	28 820,0
10	Norin tumani	0,675	29 700,0
11	Uychi tumani	0,755	33 220,0
12	Chortoq tumani	0,755	33 220,0
13	Davlatobod tuman	1,380	60 720,0
14	Yangi Namangan tuman	1,380	60 720,0

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega

Xalq deputatlari Namangan viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-41-121-6-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (so‘m)
1	**Namangan shahar**	1,380	543,72
2	**To‘raqo‘rg‘on tumani**	0,805	317,17
3	**Yangiqo‘rg‘on tumani**	0,695	273,83
4	**Chust tumani**	0,780	307,32
5	**Uchqo‘rg‘on tumani**	0,745	293,53
6	**Pop tumani**	0,675	265,95
7	**Namangan tumani**	0,775	305,35
8	**Kosonsoy tumani**	0,675	265,95
9	**Mingbuloq tumani**	0,655	258,07
10	**Norin tumani**	0,675	265,95
11	**Uychi tumani**	0,755	297,47
12	**Chortoq tumani**	0,755	297,47
13	**Davlatobod tuman**	1,380	543,72
14	**Yangi Namangan tuman**	1,380	543,72

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega

Xalq deputatlari Namangan viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-41-121-6-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

Namangan viloyatida 2024-yilda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori*

№	Tumanlar nomi	Viloyat deputatlari qo‘llagan koeffitsient *(0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsient)*
1	Namangan shahar	1,0
2	Mingbuloq tumani	0,6
3	Kosonsoy tumani	0,7
4	Namangan tumani	0,8
5	Norin tumani	0,6
6	Pop tumani	0,8
7	To‘raqo‘rg‘on tumani	0,8
8	Uychi tumani	0,8
9	Uchqo‘rg‘on tumani	0,8
10	Chortoq tumani	0,8
11	Chust tumani	0,8
12	Yangiqo‘rg‘on tumani	0,7
13	Davlatobod tuman	1,0
14	Yangi Namangan tuman	1,0